

O‘ZBEKISTONDA SAN’AT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI: “BOZOR ILLYUZIYASI” KONSEPSIYASI ASOSIDA TAHLIL



Bahromova Guzal Miraliyevna

San’atshunos

Email: ibragimovagozal88@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019529>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘tish davri iqtisodiyoti sharoitida san’at bozori shakllanishining institutsional muammolari tahlil qilinadi va “bozor illyuziyasi” konsepsiyasi ilgari suriladi. Tadqiqot O‘zbekiston misolida san’at sohasida savdo va madaniy faollik mavjud bo‘lsada, u iqtisodiy institut sifatida to‘laqonli bozor mezonlariga javob bermasligini asoslaydi. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi, bozor mexanizmi va madaniy iqtisodiyot yondashuvlari asosida uch bosqichli nazariy model ishlab chiqildi: madaniy maydon, bozor illyuziyasi va institutsional bozor. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda auksion amaliyoti, ekspertiza va raqamli kataloglash kabi institutlar shakllanayotgan bo‘lsa-da, narx mexanizmining tizimliliigi, ikkilamchi bozorning keng qamrovi va professional vositachilikning barqarorligi hali to‘liq institutsional integratsiyaga erishmagan.

Kalit so‘zlar: san’at bozori, institutsional iqtisodiyot, madaniy iqtisodiyot, narx mexanizmi, o‘tish iqtisodiyoti, O‘zbekiston, bozor illyuziyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются институциональные проблемы формирования рынка искусства в условиях переходной экономики и выдвигается концепция “иллюзии рынка”. Исследование обосновывает на примере Узбекистана, что, хотя в сфере искусства существует торговая и культурная активность, она как экономический институт не соответствует критериям полноценного рынка. На основе теории институциональной экономики, рыночного механизма и подходов культурной экономики была разработана трехступенчатая теоретическая модель: культурное пространство, рыночная иллюзия и институциональный рынок. Результаты анализа показывают, что сфера искусства не поднимется до уровня экономического института до тех пор, пока не будет прозрачного ценообразования, аукционного механизма, вторичного рынка, профессионального посредничества и инвестиционной ликвидности. Статья вводит в теорию культурной экономики новую аналитическую категорию — “модель рынка иллюзионного искусства”.

Ключевые слова: рынок искусства, институциональная экономика, экономика культуры, механизм ценообразования, переходная экономика, Узбекистан, иллюзия рынка.

Abstract: This article analyzes the institutional problems of the formation of the art market in the context of a transitional economy and puts forward the concept of “market illusion”. The study substantiates that, although there is trade and cultural activity in the art sector in the case of Uzbekistan, it does not meet the criteria of a full-fledged market as an economic institution. Based on the theory of institutional economics, market mechanisms and cultural economics

approaches, a three-stage theoretical model was developed: cultural space, market illusion and institutional market. The results of the analysis show that the art sector will not rise to the level of an economic institution until there is transparent price formation, an auction mechanism, a secondary market, professional mediation and investment liquidity. The article introduces a new analytical category into the theory of cultural economics - the "illusionary art market model".

Keywords: *art market, institutional economics, cultural economics, price mechanism, transitional economy, Uzbekistan, market illusion.*

Kirish Zamonaviy global madaniy makonda san'at bozori nafaqat estetik almashinuv maydoni, balki murakkab institutsional tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda san'at bozori auksion uylari, professional dilerlik tarmoqlari, ekspertiza institutlari, sug'urta mexanizmlari va narx indeksleri orqali tartibga solinadi.

Biroq, O'tish iqtisodiyoti sharoitida esa san'at sohasi mavjud bo'lsa-da, uning iqtisodiy institut sifatida shakllanish darajasi ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. O'zbekiston misolida san'at faoliyati, galereyalar, auksionlar va savdo jarayonlari mavjud. Biroq savol shundan iboratki: ushbu elementlar tizimli institut darajasiga ko'tarilganmi yoki ular hali fragmentar bosqichdami?

Mazkur maqolaning maqsadi — san'at sohasi va san'at bozori tushunchalarini konseptual jihatdan ajratish, bozor mavjudligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va O'zbekiston sharoitida kuzatilayotgan holatni nazariy model orqali talqin qilishdir.

Mazkur maqola madaniy iqtisodiyotga quyidagi ilmiy hissani qo'shadi:

1. "Bozor illyuziyasi" kategoriyasi ilmiy muomalaga kiritildi.
2. San'at bozori mavjudligini aniqlash mezonlari tizimlashtirildi.
3. O'tish iqtisodiyoti sharoitida qisman bozor tuzilmalarini tahlil qilish modeli ishlab chiqildi.
4. Madaniy faoliyat va iqtisodiy institut o'rtasidagi chegaralar aniqlashtirildi.

Asosiy qism. Eng avvalo san'at sohasi va san'at bozori o'rtasidagi konseptual farqni aniqlab olamiz.

| San'at sohasi | San'at bozori |
|----------------------|-----------------------------|
| Madaniy faoliyat | Iqtisodiy institut |
| Ko'rgazma | Auksion mexanizmi |
| Individual savdo | Raqobatli narx shakllanishi |
| Subyektiv baholash | Bozor indeksleri |
| Madaniy qadriyat | Investitsion aktiv |

Endi esa bozor va bozor illyuziyasini ko'rib chiqamiz. Bozor quyidagi asosiy elementlarga ega bo'lishi kerak:

1. Talab va taklif asosida shakllanuvchi narx mexanizmi
2. Huquqiy va shartnomaviy kafolatlar
3. Professional vositachilik instituti
4. Axborotning shaffofligi
5. Likvidlik va ikkilamchi savdo imkoniyati

Agar ushbu elementlar tizimli ishlamas, savdo mavjud bo'lishiga qaramay, uni to'laqonli bozor deb atash ilmiy jihatdan asosli emas.

Bozor illyuziyasi — bu tashqi ko‘rinishda bozorga o‘xshash, biroq ichki institutsional mexanizmlari shakllanmagan tizimdir.

Ya’ni:

- narx mavjud, lekin talab-taklif asosida emas;
- savdo mavjud, lekin shaffof statistika yo‘q;
- galereya mavjud, lekin professional dilerlik tizimi yo‘q;
- kolleksioner mavjud, lekin ikkilamchi bozor yo‘q.

Bu holatda tizim iqtisodiy institut emas, balki simulyativ tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

Quyida 3 nazariy modelni ko‘rib chiqamiz.

Madaniy maydon

- *Rassomlar faoliyat yuritadi*
- *Ko‘rgazmalar tashkil etiladi*
- *Individual savdo mavjud*

Bu bosqich madaniy faoliyatni ifodalaydi, iqtisodiy institut emas.

Bozor illyuziyasi

- *Narx qo‘yiladi, ammo shaffof emas*
- *Galereya mavjud, ammo vositachilik tizimi zaif*
- *Savdo mavjud, ammo statistik baza yo‘q*
- *Bitimlar ko‘pincha noformal aloqalarga asoslanadi*

Bu bosqich O‘zbekiston sharoitiga xos deb baholanadi.

Institutsional bozor

- *Auksion mexanizmi*
- *Narx indeksleri*
- *Ikkilamchi bozor*
- *Sug‘urta va ekspertiza tizimi*
- *Investitsion aktiv maqomi*

Faqat ushbu bosqichda san‘at bozori iqtisodiy institut sifatida shakllangan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitining institutsional tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Tahlil quyidagi bo‘shliqlarni ko‘rsatadi:

1. Narx shakllanishining subyektivligi
2. Ikkilamchi savdo mexanizmining yo‘qligi
3. Art-dilerlik va brokerlik institutining zaifligi
4. Investitsion kapitalning past faolligi
5. Sug‘urta va ekspertiza tizimining cheklanganligi
6. Raqobatli axborot maydonining yetishmasligi

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ayrim bozor institutlari real amaliyotda shakllanmoqda, jumladan:

1. Auksion mexanizmi – Toshkentda faoliyat yuritayotgan Art Vernissage auksion uyi orqali san‘at asarlari sotilmoqda. Auksionlar bir nechta turda o‘tkaziladi: “O‘zbekiston tasviriy san‘ati ustalarining ijodiy merosidan”, “O‘zbekiston amaliy san‘at ustalarining madaniy merosi” kabi lotlar bilan offline va onlayn formatda ham savdolar bo‘lib o‘tgan. Bu shaffof narx belgilash, xatarlarni baholash va bozor muxiti yo‘lida qadamlar hisoblanadi.
2. Ekspertizadan o‘tkazish va baholash – Art Vernissage tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan Art Appraisal Center hamda maxsus laboratoriya mavjud bo‘lib, san‘at asarlari texnologik va

san'atshunos ekspertizadan o'tkaziladi. Bu esa qadriyatni aniqlash, autentiqlik va narxni baholash mexanizmlarining boshlang'ich institutidir.

3. Sug'urta va huquqiy kafolatlar – Auksionlar doirasida asarlar sug'urtalanishi ham amalga oshiriladi, bu bozor institutlarining donor elementlaridan biridir.
4. Axborot platformalari – Art Vernissage internetda galereya va auksion kataloglari bilan shaffof axborot maydonini yaratmoqda, raqamli kataloglar orqali asarlar haqida ma'lumotlar to'planadi va baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, yuqoridagi institutlar hali to'laqonli bozor mexanizmini yaratishga yetmagan. Quyidagilar hali to'la ishlamaydi:

- Raqobatli narx mexanizmi tizimi hisoblangan yirik, mustaqil va doimiy statistik narx bazasi hali shakllanmagan;
- Keng qamrovli ikkilamchi bozor – san'at asarlarini takror sotish imkoniyatlari cheklangan;
- Professional vositachilik va brokerlik institutlari – auktsionlardan tashqari mustaqil vositachilar, brokerlar va ekspertlar hamjamiyati cheklangan.

Natijada, mazkur institutlarning mavjudligi san'at bozoriga yo'l ochayotgan bo'lsa-da, ularning integratsiyalashuvi va institutlarning barqaror mexanizmga aylanib yetilishi hali boshlanish bosqichida bo'lib, to'liq bozor institutini shakllantirgan deyishga imkon bermaydi. Bu esa "bozor illyuziyasi" fenomenini mamlakat kontekstida yanada nuqtai nazardan izohlashga asos bo'ladi.

Natijada, san'at sohasi mavjud bo'lsa-da, u iqtisodiy institut sifatida shakllanmagan.

Narx mexanizmi muammosi

Bozorning yuragi — narx mexanizmi. Agar narx:

- ochiq savdo jarayonida shakllanmasa,
 - statistik asosga ega bo'lmasa,
 - talab va taklif muvozanatini aks ettirmasa,
- u holda narx indikator emas, balki deklarativ qiymat hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida narxlar ko'pincha individual kelishuv asosida belgilanadi, bu esa bozor mexanizmi emas, balki kelishuv iqtisodiyoti belgisi hisoblanadi.

Ikkilamchi bozor investitsion muhitning asosiy shartidir. Agar xaridor asarni qayta sotish imkoniyatiga ega bo'lmasa, san'at investitsion aktivga aylana olmaydi.

O'zbekiston sharoitida ikkilamchi savdo mexanizmi institutsional darajada mavjud emas, bu esa likvidlikni pasaytiradi.

Rivojlangan tizimlarda art-dilerlar, brokerlar va ekspertlar narx shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Ular:

- ma'lumot to'playdi
- autentifikatsiya qiladi
- riskni kamaytiradi
- likvidlikni oshiradi

Mazkur institutlar shakllanmaganda bozor mexanizmi ishlamaydi.

Bozor illyuziyasidan institutsional bozorga o'tish quyidagi yo'nalishlarda mumkin:

- milliy narx indeksini ishlab chiqish;
- ochiq narx arxivi va statistik bazani yaratish;
- professional diler va brokerlik tizimini rivojlantirish;
- ikkilamchi savdo monitoringini yo'lga qo'yish;

- davlat-xususiy sheriklik asosida sugʻurta va ekspertiza tizimini kengaytirish.

Xulosa. Mazkur tadqiqot shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda sanʼat sohasi mavjud boʻlsa-da, u hali toʻlaqonli iqtisodiy institut sifatida shakllanmagan. Savdo va narx mavjudligi avtomatik ravishda bozor mavjudligini anglatmaydi.

Sanʼat bozori — bu institutsional tizim. Agar:

- narx mexanizmi shaffof boʻlmasa,
- auktsion infratuzilmasi mavjud boʻlmasa,
- ikkilamchi savdo shakllanmagan boʻlsa,
- professional vositachilik rivojlanmagan boʻlsa,

u holda tizimni iqtisodiy maʼnoda bozor deb atash ilmiy jihatdan asosli emas.

Shunday qilib, Oʻzbekiston sharoitida kuzatilayotgan holat “sanʼat bozori” emas, balki “bozor illyuziyasi”dir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Velthuis, Olav O., Baia Curioni, Stefano (eds.). *Cosmopolitan Canvases: The Globalization of Markets for Contemporary Art*. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 272 p.
2. Adam, Georgina G. *The Dark Side of the Boom: The Excesses of the Art Market in the 21st Century*. – London: Lund Humphries, 2017. – 240 p.
3. Quemin, Alain A. *Artistes et mondialisation: Démocratisation ou concentration?* – Paris: CNRS Éditions, 2016. – 280 p.
4. Graw, Isabelle I. *The Value of Art: Money, Power, Beauty*. – Berlin–New York: Sternberg Press, 2018. – 320 p.
5. Velthuis, Olav O. *Contemporary Art Markets and Cultural Value // Arts and the Market*. – 2020. – Vol. 10, No. 2. – P. 95–110.
6. Joselit, David D. *Heritage and Debt: Art in Globalization*. – Cambridge, MA: MIT Press, 2020. – 224 p.
7. Doss, Erika E. *What Is Public Art?* – Seattle: University of Washington Press, 2018. – 176 p.
8. Art Basel, UBS. *The Art Market Report 2024*. – Basel–Zurich, 2024.
9. TEFAF. *TEFAF Art Market Report 2024*. – Maastricht, 2024.
10. McAndrew, Clare C. *The Art Market 2023*. – Basel: Art Basel & UBS, 2023.